Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321166

ta’minlashning ustivor yo’nalishlari’’ mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

должны работать в тесном взаимодействии для создания среды, в которой предпринимательская деятельность будет стимулировать экономический рост и улучшение жизни населениию.

Использованное литература

Агиев, П. И. (2020). Предпринимательство и его роль в экономическом росте и повышении уровня жизни. Москва: Издательство "Экономика".

Гофман, М. Р. (2018). Экономика и социальная политика: вызовы для бизнеса в условиях глобализации. Санкт-Петербург: Научная книга.

Дьякова, Е. А. (2019). Социальная защита и поддержка предпринимательства в России. Москва: Институт экономики РАН.

Кузнецова, И. В. (2021). Устойчивое развитие предпринимательства как фактор экономической стабилизации. Журнал "Экономические исследования"

Куликов, В. С. (2017). Малый и средний бизнес как основа повышения благосостояния населения. Журнал "Финансовая экономика"

Лапина, Н. С. (2018). Правовая защита бизнеса в условиях современных экономических изменений. Москва: Юрайт.

Михайлов, С. В. (2020). Институциональные механизмы поддержки малого и среднего предпринимательства. Вестник Российской академии наук

Романова, Т. Н. (2017). Бедность и социальная мобильность: экономические и социальные аспекты. Санкт-Петербург: РГГУ.

Шишкин, В. А. (2021). Цифровизация бизнеса: как предприниматели могут увеличить доходы и улучшить благосостояние. Журнал "Современные технологии управления"

Шмидт, М. А. (2020). Глобальные тренды в развитии предпринимательства: перспективы для России. Москва: Наука.

Волков, А. И. (2019). Социальная политика и поддержка предпринимательства в контексте устойчивого развития. Журнал "Экономика труда"

Кинчук, М. В. (2022). Предпринимательская экосистема и ее роль в экономическом развитии страны. Журнал "Экономическая теория"

Карташова, О. Г. (2021). Социальное предпринимательство как механизм снижения бедности в России. Вопросы экономики и права

Смирнова, И. С. (2018). Экономика благосостояния: предпринимательство как фактор снижения бедности. Вестник Московского университета, серия экономика

QISHLOQ XO‘JALIGI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISHNING ASOSIY TAMOYILLARI

Otabekov Javdod Nurulla o‘g‘li
Guliston davlat universiteti Buxgalteriya hisobi va moliya kafedrasi o‘qituvchisi
ahrorqulovjonibek1@gmail.com

Annotatsiya: Shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda qishloq xo‘jaligiga talab keskin oshib bormoqda. Ammo annanaviy qishloq xo‘jaligi bu ehtiyoji qondirishga qodir emas. Aynan shuning uchun aqilli qishloq xo‘jaligi bizga kerak, u bu muammoni ko‘proq daromad va tejamkorlik asosida hal qilishga qodir.

Published: 23.12.2024

Cite this article: Otabekov Javdod Nurulla o‘g‘li (2024). Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni joriy qilishning asosiy tamoyillari. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321166

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Kalit so‘zlar: GPS, aqilli qishloq xo‘jaligi, suniy yo‘ldosh, IT-texnologiyalari, aniq dehqonchilik, intelektual ferma, xalqaro buxgalteriyani standartlari.

21-asr axborot texnologiyalar va rivojlanish asri. Insonlarning oshib borayotgan ehtiyojlari va uning ko ‘payishi bevosita tabiatga tasir qilib kelmoqda va turli xil muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shulardan biri bu oziq-ovqat tanqischiligi. 2050-yilga borib Yer sayyorasi aholisi 9,6 milliardga yetib, oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyoj 70 foizga oshishi kutilmoqda. Bu esa o‘z navbatida qishloq xo‘jaligi oldida cheklangan yer resurlari, suv tanqischiligi kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Qishloq xo‘jaligini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish bu muammolarni yechimi bo‘lishi mumkin. Bugungi kunda respublikamiz Prezidenti tomonidan qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish, qishloq xo‘jaligi subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda bozor tamoyillarini joriy etish, zamonaviy resurs tejovchi va intensiv agrotexnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. GPS – qabul qiluvchi qurilmalar va o‘zgaruvchan tezlikdagi texnologiya tizimi butun dunyoda rivojlanib borayotgan aqilli qishloq xo‘jaligida avtomatlashtirilgan tizimlar va texnologiyalarning rivojiga salmoqli xissa qo‘shib kelishmioqda. Butun dunyo bo‘ylab tobora ko‘proq qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari GPS navigatsiya tizimidan foydalanishayabdilar va suniy yo‘ldosh va dronlar malumotlaridan foydalanishayabdi. Zamonaviy texnologiyalar foydasi juda ulkan bo‘lgani bilan ular biroz qimmat, shu jihatdan ularning keng tarqalishi biroz qiyin bo‘lyabdi. Ammo tahlillarga ko‘ra qishloq xo‘jaligida raqamli inqilob yaqinlashib kelmoqda va bunga asosiy turkilardan biri boshqaruvchisiz transport vositalari rivojlanishi va bu qishloq xo‘jaligida ishchi kuchi muammosini ham tizimli hal qiladi.

2017 yilning 29-noyabrida muhtaram Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev «Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekkan edi. Farmonga ko‘ra, qishloq xo‘jaligiga innovatsiyalarni joriy etish sohasida eng avvalo, mavjud yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beruvchi «Aqlli qishloq xo‘jaligi» konsepsiyasiga asoslangan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining zamonaviy sinalgan shakllarini joriy etish, agrar sektorda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini maksimal darajada avtomatlashtirish, hosildorlikni jiddiy oshirish va moliyaviy ko‘rsatkichlarni yaxshilash, shuningdek, mamlakatimiz oziqovqat xavfsizligini ta’minlash imkonini beruvchi innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etishga ko‘maklashish kabi vazifalar vazirlikning asosiy faoliyat yo‘nalishlari etib belgilandi. Ekologik vaziyatning yomonlashishi , energiya vositalarining qimmatlashuvi va yer unumdorligining pasayib ketishi talab darajasidagi oziq-ovqat ishlab chiqarishga jiddiy to‘siq bo‘lmoqda. Bu muammolarni boshqarish uchun “narsalar interneti” konsepsiyasi va shu kabi zamonaviy texnologiyalar va innavatsion yechimlar , qisqacha aytganda aqilli qishloq xo‘jaligi orqali hal etish mumkin. Bugungi kunda IT-texnologiyalarini donli ekinlarni yetishtirishda faol qo‘llanilib kelinmoqda va bu “aniq dehqonchilik” nomi bilan atalib kelinmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi xo‘jaliklari IT-texnologiyalarini o‘z sohalarida aktiv qo‘llab kelishmoqda. Turli datchiklar , sun’iy yo‘ldoshlardan olingan ma’lumotlar va mobil ilovalar shular tarkibiga kiradi. Ular yordamida urug‘larni ekish , sug‘orish , chopiq qilish , daladagi hosilni yig‘ib olish uchun eng qulay vaqtni aniqlash mumkin. Yetkazib berishning qulay va tezkor marshrutini tanlash , mevalarni sifatli saqlash uchun omborlarni nazorat qilish muammosiz. Haridorlar bilan aloqa o‘rnatish , yangi bozorlarga chiqish , oldindan buyurtmalar olish kabi imkoniyatlar iqtisodiy rivojlanishni ta’minlab beradi. Mobil ilovalar va datchiklar orqali keyingi yilda qaysi mahsulot talabgir bo‘lishini bilish va aynan shu mahsulotni yetishtirishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida bozordagi talab va taklifning muvozanatini ham taminlab beradi. Bundan tashqari u talabgir mahsulotni yetishtirish uchun investor topishi ham ancha ossonlashadi.

Bundan tashqari tayyor savdo bozorlari va aniq xaridorlardan kelib tushgan talab orqali fermer mahsulotini ozi istagan narxda o‘zi istagan haridorga sotish imkoniyatiga ega bo‘ladi. AQSH , Xitoy , Hindiston , Kanada , Isroil kabi dalatlar agrostartaplarga aktiv investitsiya jalb qilayotgan davlatlar hisoblanadi. Respublikamizning agrar sohadagi imkoniyatlardan kelib chiqib bu sohani rivojlantirishimiz kerak va shartdir. Ko‘plab fermer xo‘jalikalri o‘z mahsulotlarini arzonga sotishadi. Bunga sabab fermerlar logistika , eksport-import shartnomalarini o‘rganib chiqish va yangi bozorlarni izlash borasida qiziqish bildirishmaydi. Zamonaviy qishloq xo‘jaligi bu muammolarni ortiqcha muammolarsiz hal etishda juda katta yordam beradi. Xarajatlarni qisqartirish , samaradorlikni oshirish har qanday daraja va yo‘nalishdagi zamonaviy qishloq xo‘jaligi korxonasini rivojlantirishning asosiy maqsadidir.

Qishloq xo‘jaligi zamonaviy texnologiyalarining tarqalishi sust. Bunga sabab esa ularning narxida va ularni qondiruvchi katta investitsiyalarning yo‘qligida. Qishloq xo‘jaligi holdinglari ham hatto innovatsiyalarni joriy qilishni bosqichma bosqich , moliyaviy yuklarni taqsimlab , kredit olishdan qochgan holda amalga oshirishmoqda. Intelektual fermalarda boshqaruvchisiz transportlar rivojlanib bormoqda. Traktor va yuk mashinalariga o‘rnatilgan o‘zi yurar tizmlar inson omilini kamaytiribgina qolmay don va yoqilg‘i o‘g‘irligini ham to‘xtatadi. Bundan tashqari kamera va yuqori sezuvchi sensorlar bilan ta’minlangan uchuvchisiz uchish aparatlari , ular bir necha soat davomida xo‘jalikda tadqiqot olib borishlari , yig‘gan malumotlari asosida 3D formatdagi maydonlarning elektron haritasini yaratishi , vegetatsiya indeksini hisoblash , yerni himoyalash kabi muhim vazifalarni amalga oshirishi mumkin. Datchik va sensorlar intelektual fermaning muhim qisimlaridan hisoblanadi. Ular butun xo‘jalikdagi ob ‘yektlar holatini , tuproqning namlik darajasi , harorat , o‘simlikning , sog ‘lomlik darajasi , yonilg ‘i zaxirasi va shu kabi muhim ma’lumotlar haqida uzluksiz ma’lumot berib turishadi. Datchiklar o‘simlik va hosildorlik , tabiiy xilma-xillik haqida , sensorlar tuproq tizimining asosiy xususiyatlari haqida ma’lumot berib turishga ixtisoslashgan. Bular esa hosilni saqlash va to‘liq yetishtirishga juda katta yordam beradi. Bu texnikalarni chorvachilik va baliqchilikda ham yuqori samara bilan ishlatsa bo‘ladi. Qoramollarning holati , sut sog‘ish vaqti , homladorligi , kasallik belgilarinin aniqlash mumkin.

Ma’lumotlarga qaraganda dunyo bo‘yicha 70 foiz toza suv qishloq xo‘jaligiga sarflanar ekan. Uning 60 foizi esa isrof bo‘lib ketar ekan. Bu muammoni ham intelektual tizim orqali hal qilish mumkin. Tizim fermerga suv nasoslarini masofadan boshqarish , yetishmovchiligi haqida oldindan habar topishi mumkin. Hindistonda “Nano Ganesh” mobil ilovasi bu borada ishlaydi va ular bu orqali suv , mablag ‘ va vaqtni tejab qolishga erishganlar. Chilida ham bu borada yuqori yutuqlar mavjud. Ular meva plantatsiyalarini datchiklar orqali sug‘orishmoqda va bu ularga suv sarfini 70 foizga kamaytirishga yordam berdi. Bundan tashqar NASA AQSH geologiya xizmati bilan xamkorlikda sun’iy yo‘ldosh orqali mamlakatdagi tuproq namligi haqida ma’lumotlarni olishgan.


Mamlakatimiz Markaziy Osiyoning qulay xududida joylashgan. Respublikada yillik samarali temperatura 26-30° ni tashkil etib, quyoshli soat 3600 dan ortiq bo‘lib, bir yilda birnecha marta hosil olish imkonini beradi. O‘zbekistonning jami yer maydoni 44.4 mln. gektar bo‘lib, shundan 50,8 foizini turli xildagi qishloq xo‘jalik korxonalari, tashkilotlari hamda dehqon xo‘jaliklari foydalanadilar: ularning yig‘indisi mamlakat qishloq xo‘jaligini tashkil etadi. Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun hamma shariot mavjud , ammo qishloq xo‘jaligining asosiy qismi hali ham an’anaviy usuldan foydalanib kelmoqda. Birgina suv resurslaridan tejamkor texnalogiyalarni qo‘llash bo‘yicha statistikani ko‘radigan bo‘lsak bu sohada qilinadigan ishlarimiz hali juda ko‘pligini ko‘rish mumkin.

	Hududlar nomi	U	Tomc	Yomg	Disk

D		mumiy reja, ga	hilatib sug‘orish, ga	‘irlatib sug‘orish	ret sug‘orish, ga
	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	20 224	17 649	1 575	1 000
	Andijon viloyati	22 101	19 007	1 594	1 500
	Buxoro viloyati	24 929	21 439	1 990	1 500
	Jizzax viloyati	24 744	13 680	2 464	8 600
	Qashqadaryo viloyati	22 186	22 520	2 166	1 500
	Navoiy viloyati	19 503	17 163	1 840	500
	Namangan viloyat	23 454	20 405	2 049	1 000
	Samarqand viloyati	24 257	21 104	2 153	1 000
	Sirdaryo viloyati	21 637	18 824	1 313	1 500
0	**Surxondaryo viloyati**	22 106	19 453	1 653	1 000
1	**Toshkent viloyati**	23 654	20 579	2 075	1 000
2	**Farg‘ona viloyati**	24 566	20 881	2 185	1 500
3	**Xorazm viloyati**	22 639	19 696	1 943	1 000
	Jami	**30 0000**	**25240 0**	**2500 0**	**2260 0**

1-jadval. Respublikamizda suv tejovchi tehnologiyalarni qo‘llanilishi

O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy chegarasidagi umumiy maydoni jami **44 million 892 ming 400 gektarni,** shundan sug‘oriladigan yerlar esa **4 million 331 ming 700 gektarni** tashkil qiladi.yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki suv tejamkor texnalogiyalar jami sug‘oriladigan yerlarning **6.9 foizini** tashkil qiladi.



Mamlatimizda dehqon va fermer xo‘jalikarining ko‘p qismi aqilli qishloq xo‘jaligidan bexabar. Birinchi navbatda ularning bu boradagi huquqiy savodxonligiga kuchli e’tibor qaratishimiz lozim. Bundan dehqon va fermerlar aqilli qishloq xo‘jaligi qiziqishlari oshadi va uni o‘z xo‘jaliklarida tatbiq qilishga harakat qilishadi. Ammo bu oson emas. Shu bois davlatni bu sohaga katta miqdorda subsidiyalar ajratishi va kam foiz stavkalari asosida imtiyozli kreditlar berishi bu sohani rivojiga yanda katta hissa qo‘shadi. Bundan tashqari fermer va dehqonlar investorlarni jalb qilishga harakat qilishi ham jiddiy turtki bo‘ladi. Bunda mamlakatimiz investorlarga yanaga kuchliroq sharoit yaratib berishi kerak. Xalqaro Buxgalteriyani standartlarini mamlakatimizda rivojlantirish bunga bir misol bo‘ladi. Mamlakatimiz qadim ulkan tarixga ega va butun dunyodan yurtimizda qiziqib keluvchi sayyohlar oqimi oshib bormoqda. Kelgan sayyohlarga mamlakatimizning qishloq xo‘jaligidagi salohiyatini ko‘rsatib berishimiz kerak. Bu o‘z navbatida investorlar ko‘lamini oshishiga ijobiy ta’sir o‘tkazadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATIGA:

1. 2020-yil 26-martdagi “Iqtisodiyotni kambag‘allikni qisqartirishga oid Davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5975-sonli farmoni

2. 2020-yil 26-martda O‘zbekiston Respublikasi Respublikasi “Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorlar

3. Alikulov, A. I., & Bakhriev, M. (2023). IMPROVING THE ACCOUNTING OF THE COSTS OF MODERNIZATION AND REPAIR OF KEY EQUIPMENT IN AGROCLUSTERS. International Journal Of Literature And Languages, 3(11), 14-19.

4. Nazarova, M., & Kazakova, Z. (2023). Paxta-to ‘qimachilik klasterlarida sotish baholarining tahlili.

5. Kazakova, Z. S., & Aslonov, X. (2023). QISHLOQ XO ‘JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI O ‘RNI. The Journal of Economics, Finance and Innovation, 391-398.

6. Alikulov, A. M., & Toshpulatov, J. (2023). Agroklasterlarda moliyaviy natijalar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari.

7. Olimjonovna, J. R. D., & Tashmuratovich, E. U. B. (2023). AGROKLASTERLARDA KAPITAL SARFLAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI. MASTERS, 1(1), 112-118.